

HALQARO STANDARTLARNI JORIY ETISH – MAHSULOT EKSPORTI HAJMINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI

Ummatov Rustambek Bektoshevich

Qo‘qon davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Yo‘ldashev Bilolxon Iqboljon ogli

Qo‘qon davlat universiteti assistent o‘qituvchisi

Abdullayev Zokirjon Djo‘rayevich

Qo‘qon davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Bobonazarov Shukurjon O‘ktamjon ogli

Qo‘qon davlat universiteti stajor o‘qituvchisi

Umarov Sodiqjon Ahmadali ogli

Qo‘qon davlat universiteti stajor o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro standartlarning (ISO, HACCP, GlobalGAP va boshqalar) O‘zbekiston sanoat tarmoqlaridagi joriy etilish jarayonlari va ularning eksport hajmining o‘rishiga ko‘rsatadigan ta‘hiri keng qamrovda tahlil qilinadi. Tadqiqot 2023–2025 yillarga oid tashqi savdo ko‘rsatkichlari, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan sertifikatlashni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ISO, OECD va Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlarning ilmiy-amaliy ma‘lumotlari asosida olib borilgan. Olingan natijalar xalqaro standartlarni tatbiq etish mahsulot sifati va xavfsizligini oshirish, texnik to‘siqlarni kamaytirish, eksport shartnomalarida ishonchni kuchaytirish va yangi bozorlar ochilishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, korxonalarning standartlarni joriy etish xarajatlarini kamaytirish hamda malaka oshirish dasturlarini kengaytirish eksportning barqaror o‘rishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi aniqlangan.

ВНЕДРЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНЫМ ФАКТОРОМ УВЕЛИЧЕНИЯ ЭКСПОРТА ПРОДУКЦИИ.

Умматов Рустамбек Бектошевич

Старший преподаватель Кокандского государственного университета

Юлдашев Билолхон Икболжон оглы

Ассистент, Кокандский государственный университет

Абдуллаев Зокирджон Джораевич

Старший преподаватель Кокандского государственного университета

Бобоназаров Шукурджон Уктамжон оглы

Стажер-преподаватель Кокандского государственного университета

Умаров Содикжон Ахмадали оглы

Стажер-преподаватель Кокандского государственного университета

Аннотация: В статье рассматривается влияние внедрения международных стандартов (ISO, HACCP, GlobalGAP и др.) на экспортный потенциал промышленного сектора Узбекистана. Исследование проведено на основе статистики внешней торговли за 2023–2025 годы, государственных программ по поддержке сертификации, а также аналитических материалов ISO, OECD и Всемирного банка. Результаты показывают, что международные стандарты повышают качество и безопасность продукции, сокращают технические барьеры в торговле, укрепляют доверие при заключении экспортных контрактов и расширяют доступ к зарубежным рынкам. Кроме того, совершенствование мер поддержки сертификации и программ подготовки кадров способствует устойчивому росту экспортного потенциала.

INTRODUCTION OF INTERNATIONAL STANDARDS IS AN IMPORTANT FACTOR IN INCREASING PRODUCT EXPORTS

Ummatov Rustambek Bektoshevich

Senior Lecturer, Kokand State University

Yuldashev Bilolkhon Iqboljon ogli

Assistant Lecturer, Kokand State University

Abdullayev Zokirjon Djo'rayevich

Senior Lecturer, Kokand State University

Bobonazarov Shukurjon Uktamjon ogli

Trainee Lecturer, Kokand State University

Umarov Sodiqjon Ahmadali ogli

Trainee Lecturer, Kokand State University

Abstract: This paper analyzes the impact of implementing international standards (ISO, HACCP, GlobalGAP, etc.) on the growth of export volumes in Uzbekistan's production sectors. The study is based on foreign trade indicators for 2023–2025, national certification support mechanisms, and analytical data from ISO, OECD and the World Bank. The findings reveal that the adoption of international standards enhances product quality and safety, reduces technical barriers, strengthens the reliability of export contracts, and facilitates entry into new markets. Furthermore, reducing certification costs and expanding capacity-building programs contribute to the sustainable development of export activities.

Kalit so'zlar: Xalqaro standartlar, eksport, ISO, HACCP, GlobalGAP, texnik tartibga solish, sertifikatlash, tashqi savdo, sifat menejmenti, raqobatbardoshlik, mahsulot xavfsizligi.

Kirish

Global iqtisodiy makonda raqobatning jadallashib borishi mahsulot sifati, xavfsizligi va xalqaro bozorlarda tan olinishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, eksport faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ishlab chiqarish jarayonlarining xalqaro standartlarga mos bo‘lishini talab qiladi. Rivojlangan bozorlarda qo‘llanilayotgan texnik reglamentlar va sertifikatlashtirish talablarining kuchayib borayotgani korxonalardan sifat boshqaruvini takomillashtirish, ishlab chiqarishni standartlashtirish va global talablar bilan uyg‘unlikda rivojlanishni taqozo etadi.

ISO 9001, ISO 22000, HACCP, GlobalGAP kabi standartlar ishlab chiqarish jarayonlarini tartiblash, sifat menejmenti tizimini takomillashtirish, iste‘molchi ishonchini mustahkamlash, eksport jarayonidagi texnik to‘siqlarni minimallashtirish va xalqaro bozorlarda mahsulotning tan olinishi uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston oxirgi yillarda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, qayta ishlangan mahsulotlar ulushini oshirish va global bozorlar bilan integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida xalqaro sertifikatlarni olish xarajatlarini qoplash, texnik yordam ko‘rsatish, laboratoriyalar faoliyatini modernizatsiya qilish va konsalting xizmatlarini rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu eksport salohiyatining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Mazkur sharoitlar xalqaro standartlarni joriy etishni O‘zbekiston eksport siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirib, sifat infratuzilmasining takomillashuvi orqali yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro standartlarni joriy etishning O‘zbekiston eksport salohiyati va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligiga ko‘rsatadigan iqtisodiy va tashkiliy ta‘sirini ilmiy asosda o‘rganishdan iboratdir. Xalqaro bozorlar tomonidan qo‘yilayotgan sifat va xavfsizlik talablari muttasil kuchayib borayotgan bir sharoitda korxonalarning ISO, HACCP, GlobalGAP kabi standartlar asosida ishlashi mahsulotning eksportbopligi, bozorlarga kirish tezligi va shartnomalar barqarorligi uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi statistik, qiyosiy, tizimli va funksional tahlil usullariga asoslangan bo‘lib, bir nechta bosqichlarda amalga oshirilgan. Dastlab O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, WTO, UN Comtrade, TradingEconomics kabi manbalardan olingan 2023–2025 yillardagi eksport ko‘rsatkichlari o‘rganilib, eksportning o‘shish dinamikasi, tarmoqlar bo‘yicha ulushi va bozorlar geografiyasidagi o‘zgarishlar aniqlangan. Ushbu raqamlar mamlakatning tashqi savdo tarkibida sifat ko‘rsatkichlarining sezilarli oshganini ko‘rsatadi.

Keyingi bosqichda davlat tomonidan eksportni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar — xalqaro standartlar bo‘yicha sertifikatlash xarajatlarini qoplash, texnik yordam dasturlari, laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o‘tkazish, malaka

oshirish tashabbuslari — amaliy misollar asosida tahlil qilindi. 2023 yilda 410 ta, 2024 yilda 575 ta, 2025 yilda esa 620 ta xalqaro standartning joriy etilgani bu boradagi ijobiy o'zgarishlarning izchilligidan dalolat beradi.

ISO, OECD va Jahon bankining ilmiy nashrlarida qayd etilganidek, xalqaro standartlarning eksportga ta'siri bir necha mexanizmlar orqali namoyon bo'ladi:

- mahsulot sifati va xavfsizligini oshirish;
- texnik va notarif to'siqlarni kamaytirish;
- eksport shartnomalarida ishonchni mustahkamlash;
- ishlab chiqarishni optimallashtirish va tannarxni pasaytirish;
- global yetkazib berish zanjirlariga integratsiyalashuvni kuchaytirish.

O'zbekiston korxonalari misolida olib borilgan tahlillar ushbu mexanizmlarning amalda o'z tasdig'ini topganini ko'rsatadi. ISO 9001, ISO 22000, HACCP hamda GlobalGAP standartlarini joriy qilgan korxonalar eksport bozorlariga tezroq chiqmoqda, texnik to'siqlarning kamayishi evaziga xalqaro hamkorlikning kengayganini kuzatish mumkin. Bunday korxonalar bilan ishlovchi xorijiy xaridorlar ishonchi yuqori bo'lib, shartnomaviy majburiyatlar barqarorligi ham kuchaygan.

Shu bilan birga, tadqiqot kichik va o'rta biznes sub'yektlari uchun mavjud cheklovlarni ham ko'rsatadi: sertifikatlash xarajatlarining yuqoriligi, tajribali mutaxassislar yetishmasligi, sinov laboratoriyalarining cheklanganligi kabi omillar standartlashtirish jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan texnik va moliyaviy yordamlar ushbu muammolarni yumshatishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, xalqaro standartlarning keng tatbiqi O'zbekiston eksport salohiyatining barqaror o'sishida strategik ahamiyat kasb etib, sifat infratuzilmasining mustahkamlanishi, texnik to'siqlarning kamayishi va global bozorlarga kirish imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa va tavsiyalar

Tadqiqot natijalari xalqaro standartlarni joriy etish O'zbekiston eksport siyosatida asosiy drayverlardan biri ekanini ko'rsatmoqda. 2023–2025 yillarda eksport hajmi sezilarli o'sib, sertifikatlangan korxonalar sonining ko'payishi hamda sifat infratuzilmasining mustahkamlanishi bu jarayonning bevosita natijasi sifatida namoyon bo'ldi.

Quyidagi tavsiyalar eksportning barqaror o'sishiga xizmat qiladi:

- a) Korxonalar uchun sertifikatlash xarajatlarining bir qismini davlat tomonidan kompensatsiya qilish mexanizmlarini kengaytirish.
- b) Mahalliy laboratoriyalarni xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazishni jadallashtirish.
- c) Standartlashtirish va sertifikatlash bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlash dasturlarini kuchaytirish.

d) Oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi, tekstil va sanoat tarmoqlari uchun maxsus xalqaro standartlashtirish dasturlarini ishlab chiqish.

e) Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish va sertifikatlarning o‘zaro tan olinishi bo‘yicha kelishuvlarni rivojlantirish.

j) Sertifikatlash jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish va onlayn platformalar orqali soddalashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ISO. International Standards Compendium. Geneva, 2023.
2. OECD. Trade and Quality Standards: Analytical Report. Paris, 2024.
3. World Bank. Global Trade and Standards Report. Washington, 2025.
4. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Tashqi savdo ma’lumotlari, 2023–2025 yillar.
5. WTO. Trade Profiles: Uzbekistan. Geneva, 2024.
6. UN Comtrade Database. International Trade Statistics, 2023–2025.
7. “Standartlashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 2022.